

BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLAB QOLISH

Z.Bahodirova, Sh.Yakubjonova

Maqsadi: Yoshlarga biologik xilma-xillikni saqlab qolish muammolari haqida ma'lumot berish, atrof muhitni muhofaza qilishga o'rgatish va shular orqali ekologik madaniyatli shaxsni shakllantirish.

Vazifalari:

- 1. Biologik xilma-xillik bo'yicha tushuncha hosil qilish;*
- 2. Biologik xilma-xillikni saqlab qolish muammolariga oid ma'lumotlar berish;*
- 3. Tadbir orqali tabiatni muhofaza qilish bo'yicha yoshlarda ko'nikma hosil qilish.*

Xulosa. Ushbu rolli o'yin shousi orqali yoshlarga biosferaning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan o'simlik va hayvon turlariga insonning ta'sirini va ularni saqlab qolish muammolari yechimi, hal qilish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Asosiy atama va tushunchalar:

Tabiatni muhofaza qilish, biologik xilma-xillik, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, landshaft, "Qizil kitob", endem tur, fauna, flora, populyatsiya, qo'riqxonalar, rezervat.

Foydalaniladigan metodlar: rolli o'yin, shou.

Guruh ichidan boshlovchi, ekolog, ekspertlar - botanik, zoolog, o'rmon xodimi, tabiatni muhofaza qilish davlat vakili rollariga o'quvchilar tanlab olinadi.

Tadbir uchun sahna tashkil etiladi. Sahnada. go'zal landshaft ko'rinishlari aks etib turishi lozim.. Ayrim noyob o'simlik yoki hayvonlarning rasmlari yoki fotosur'atlari namoyish etilishi lozim.

Boshlovchi: Qadrlil hamkasblar! Bugun bizning oldimizda biosferaning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan o'simlik va hayvon turlariga insonning ta'sirini baholash vazifasi turibdi. Bizning bugungi uchrashuvimizda hurmatli ekspertlar ishtirok etmoqdalar (ekspertlar bilan tanishtiradi va ular o'rinlaridan turib, zaldagilar bilan bosh egib salomlashadilar).

Muhokamani boshlashdan avval biz asosiy masalalarni belgilab olishimiz zarur. Shunday qilib, kun tartibiga qanday vazifalarni kiritamiz? (Zalda ishtirok etayotganlar turli masalalarni taklif etadi va boshlovchi ularni izohlaydi).

- Tabiatni muhofaza qilish tizimining holati.
- Ekologik tashkilotlarning biologik xilma-xillikni saqlashdagi roli.
- O'rmonlardan noto'g'ri foydalanish tufayli kelib chiqayotgan salbiy holatlar.
- O'zbekiston «Qizil kitob»iga kiritilgan o'simlik turlari.
- O'zbekiston «Qizil kitob»iga kiritilgan hayvon turlari.

Boshlovchi: Yuqorida sanab o'tilgan masalalarni insonning biologik xilma-xillikka ta'siri va ularni saqlab qolish imkoniyatlari deb, birlashtirish mumkin. Ammo o'rmonlardan foydalanish masalasini keyingi mashg'ulotlarga qoldirsak ham bo'ladi. Kelinglar, o'ylab ko'raylik, yana qanday masalalar e'tibordan chetda qoldi (Zaldagi o'tirganlar qo'shimcha ma'lumotlarni taklif etadi. Boshlovchi ularni izohlaydi)

-O'g'rincha ovchilikning ta'siri. Bu ham o'simlik va hayvon turlarini kamayishiga ta'sir etadi.

Boshlovchi: Bu to'g'rida albatta to'xtalamiz.

So'zni biologik xilma-xillikga insonning ta'siridan boshlasak.

Sayyoramizda har kuni o'rtacha bitta o'simlik yoki hayvon turi yo'qoladi. Bu o'z navbatida, o'nlab yoki yuzlab o'simlik turi bilan bog'liq umurtqasiz hayvonlarning yo'qolishiga sababchi bo'ladi. Avval bu haqda zoologning so'zini eshitsak.

Zoolog: 1600-yildan boshlab 63 tur sut emizuvchilar va 74 qushlar yo'qolib ketdi. Ular orasida tarpan, zebra-kvaga, xaltali bo'ri, dengiz sigiri, Turon yo'lbarsi kabilar bor. Yaqinda turli mamlakatlar bo'yicha yo'qolib borayotgan umurtqali hayvonlar soni haqida ma'lumotlar chop etildi. Bunda AQSh -281, undan keyin Indoneziya -242, Braziliya -167, Xitoy -153, Hindistonda 137 tur hayvon qayd etilgan. Eng qoniqarli holat Germaniyada hisoblanib, unda yo'qolish havfi arafasidagi 11 tur umurtqali hayvon ma'lum bo'lgan.

Boshlovchi: Menimcha, Germaniyadagi hayvonlarni boshqa mamlakatlardagi bilan solishtirib bo'lmaydi. Masalan, Shimoliy Amerika qit'asi tundradan tortib jazirama cho'llargacha va ko'pgina tog' tepaliklariga ega.

O'zbekistonda ahvol qanday?

Zoolog: O'zbekistonda yo'qolish havfi ostida 161 umurtqali hayvon ma'lum.

Endi so'z botanikka: Umuman dunyo bo'yicha har o'nta o'simlikdan bittasi yo'qolib borayotgan tur hisoblanadi. AQShda yo'qolish arafasida-1875, Hindistonda-1256, Braziliyada-483, Germaniyada ahvol ancha yaxshi, ya'ni 16 tur ro'yxatga kiritilgan.

Boshlovchi: O'zbekistonda-chi?

Botanik: 324 tur ro'yxatga olingan.

Boshlovchi: So'zga chiqqan kasbdoshlarga kim qo'shimcha qilmoqchi?

Zaldagi ishtirokchilar: Men yaqinda adabiyotlardan quyidagi ma'lumotlarni oldim. Dunyo bo'yicha bugungi kunda 11 mingdan ortiq o'simlik va hayvon turlari yo'qolish xavfida ekanligi qayd etilgan. Yana 5 ming tur ro'yxatga kirishga nomzod hisoblanadi.

Zaldagi ishtirokchilar: Men yirik ekolog olim D.X. Medouzning fikrini bayon qilmoqchiman. Uning fikricha, har kuni turli sabablarga ko'ra turlarning kamayishi 10 tadan 100 tagachani tashkil etadi. Medouz Madagaskar oroli va G'arbiy Ekvadorda daxshatli holatda biologik xilma-xillikning kamayishiga misollar keltiradi. Madagaskarda 90% tropik o'rmonlar yo'qolishi hisobiga u yerdagi barcha turlarning yarmi yo'qolib ketgan. Ularning 60% i endemik turlar edi. G'arbiy Ekvadorda esa tropik o'rmonlarni bananzorlarga aylantirilishi natijasida kamida 50 ming tur organizmlar yo'qolib ketdi.

Boshlovchi: Rahmat. Biologik xilma-xillik masalasi, ya'ni uni saqlab qolish ayrim davlatlar, jamoatchilik va xalqaro hamkorlikni talab etadigan muhim dolzarb muammodir. Keling, biologik xilma-xillikni saqlab qolishning asosiy yo'nalishlarini esga olaylik. Ularning samarali ish faoliyatiga nazar tashlaylik.

Zaldagi ishtirokchilar: Turlarning tabiatda mavjudligi ularning populyatsiyasidir. Ma'lumki, o'simlik va hayvonlar populyatsiya tarzida muhofaza qilinadi. Fauna va florani muhofaza qilishni tashkil etish uchun muhofaza qilish hududlari va «Qizil kitob» tashkil etilgan. Bunda ayrim chiroyli gullovchi va dorivor o'simlik turlarini yig'ish va tayyorlash kabilar taqiqlanadi. Shuningdek, noyob hayvonlarni ovlash, baliqlarni, kapalaklarni va qo'ng'izlarni tutish man etiladi.

Boshlovchi: Turlarni saqlab qolishning taqiqlashdan boshqa maxsus shakllari bormi?

Zaldagi ishtirokchilar: Dunyo bo'yicha turlarni ko'paytirish bo'yicha ancha tajribalar to'plangan. Hayvonlar hayvonot bog'larida ko'paytiriladi, o'simliklar botanika bog'larida o'stiriladi. Noyob turlarni parvarishlash va ko'paytirish uchun mahsus markazlar tashkil etilgan. O'zbekistonda «Jayron» ekomarkazi va boshqalar mavjud.

Zaldagi ishtirokchilar: Turlarni saqlab qolishda O'zbekistonda loyihalashtirilgan NQBR (Nurota-qizilqum biosfera rezervati) ham muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy vazifalaridan biri biologik xilma-xillikni, landshaftlarni va ekotizimlarni saqlash hamda muhofaza qilish hisoblanadi.

Boshlovchi: NQBR hududida nechta va qanday o'simlik turlari «Qizil kitob»ga kiritilgan?

Botanik: Loyihalashtirilgan mintaqa o'ziga xos xilma-xil ekologik sharoitlardan iborat bo'lib, Respublika «Qizil kitobi»ga 60 ga yaqin turlar kirgan. Ushbu turlarning ko'pchilik qismi endem turlar hisoblanadi. Cho'llardagi kovrak, sumbul, qandimlarning bir nechta turlari, astragallar, sirttan va boshqalar bilan birga tog'larda lolalarning, shirachlarning bir nechta turlari «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Boshlovchi: Lolalar va boshqa turlar qanday sabablarga ko'ra «Qizil kitob»ga kirib qolgan?

Botanik: Gap lolalar haqida boradigan bo'lsa, ma'lumki, lolalar guli juda chiroyli bo'ladi va uning chiroyi kishilarni o'ziga jalb qiladi. Shuning uchun ko'pincha lolalarning gullari yig'ib olinadi. Hatto, ba'zi joylarda bahor faslida yo'lning yoqalarida odamlar lolalarni sotib o'tiradilar. Bundan tashqari, lolalarning piyozi kavlab olinadi. Ular o'sadigan maydonlarda chorva mollarini boqish ham ularning kamayishiga sabab bo'lmoqda. Boshqa turlar ham odamlar tomonidan oziq-ovqat, chorva uchun ozuqa, shifobahshligi uchun dori sifatida, shuningdek, ba'zi turlardan o'tin sifatida foydalanishlari natijasida kamayib yoki yo'qolib borayotgani uchun ham «Qizil kitob»ga kiritilgan.

Boshlovchi: «Qizil kitob»ga kirgan turlarni qanday yo'llar bilan muhofaza qilish mumkin?

Botanik: Avvalambor, botanika bog'larida, ilmiy tadqiqot institutlarida ularning biologik va ekologik xususiyatlari o'rganiladi, madaniylashtirish ishlari olib boriladi. Chorva mollarini boqish tartibga solinadi. Noyob turlar mavjud landshaftlar nazoratga olinadi. Shu bilan birga, bunday turlar qo'riqxonada, buyurtmaxona, milliy bog'larda muhofaza qilinadi.

Boshlovchi: O'zbekiston «Qizil kitobi»ga qaysi hayvonlar kiritilgan?

Zoolog: Umurtqali hayvonlardan baliqlar, sudralib yuruvchilar, qushlar va sut emizuvchilarning bir nechta turlari kiritilgan. Baliqlardan Orol baxrisini; sudralib yuruvchilardan kapcha ilonni; qushlardan soqqaqush, oqqush, burgutlarning bir nechta turlari, yo‘rg‘a tuvaloq, sut emizuvchilardan mitti qo‘shoyoq, gepard, qoraquloq, jayron, qizilqum arxari kabilar «Qizil kitob» ga kiritilgan. Umuman NQBR hududi bo‘yicha umurtqasiz va umurtqali hayvonlarning 50 turi ro‘yxatga olingan.

Boshlovchi: Umurtqasiz hayvonlarning bir nechtasining nomini aytib bersangiz? Nima uchun ular muhofazaga olingan?

Zoolog: Hozirgi paytda Fanlar Akademiyasining Zoologiya instituti va O‘zbekiston Zoologiya jamiyatining say-harakatlari bilan «Qizil kitob»ga halqasimon chuvalchaglarning 3 turi, mollyuskalarning 14 turi, bo‘g‘im oyoqlilarning 61 turi kiritildi. Shulardan biosfera rezervatida go‘ngpashshalarning bir nechta turi, So‘g‘d va Baqtriya tishsizi va boshqalarni aytish mumkin. Umurtqasiz hayvonlar ham inson ta‘siridan chetda qolgani yo‘q. Ho‘jalik maqsadida cho‘l zonasini o‘zlashtirish, yaylovlardan noto‘g‘ri foydalanish, to‘qaylar maydonining qisqarib borishi, daraxt va butalarni kesib tashlash, suv sathining keskin pasayishi yoki ifloslanishi, Sug‘d va Baqtriya tishsizlarini chig‘anoqlarini yig‘ish natijasida ular kamayib, yo‘qolish xavfi arafasida yoki noyob turlar qatoriga kirib qoldi.

Boshlovchi: Qizilqum arxarining bioekologiyasi haqida tushuncha bersangiz?

Zoolog: Ilgari Markaziy va G‘arbiy Qizilqumning Nurota, Malguzar, Turkiston, Zarafshon tog‘larida, hozirda esa Nurota, Oqtov qoldiq tog‘larida tarqalgan. Qizilqum arxari tog‘larning o‘rta va yuqori qismlarida yashab, qish faslida pastga tushadi. 1960-yilda Oqtovda 120-150 dona yovvoyi qo‘ylar hisobga olingan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni bir nechta o‘n dona qoldi. Nurota tog‘larida 2500 donasi ma‘lum bo‘lib, ularning ko‘p qismi Nurota qo‘riqxonasida yashamoqda. Yovvoyi qo‘ylar pada bo‘lib yashaydi, mavsumiy ko‘chish kuzatiladi. Bahor faslining oxirlarida bolalaydi, 1-2 tagacha bola tug‘adi. Bolalari bir yoshgacha onasi bilan birga bo‘ladi. Asosan, o‘t o‘simliklar bilan oziqlanadi.

Boshlovchi: Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ayrim o‘simlik va hayvon turlari botanika bog‘lari, Nurota qo‘riqxonalarida tabiatning boshqa qismlari bilan birga muhofaza qilinib, bunday joylar muhofazaga olingan hududlar deb ataladi. Bizning oramizda tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi vakili ham ishtirok etmoqda. Ulardan dunyo bo‘yicha va bizning Vatanimizda maxsus muhofaza hududlari tashkil etish borasida qanday ishlar olib borilayotgani to‘g‘risida so‘zlab berishlarini so‘raymiz.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi vakili: YuNESKO tashkilotining ekspertlari hisob-kitoblariga ko‘ra, biologik xilma-xillikni saqlash uchun har bir mamlakatda maxsus muhofazaga olingan hududlar maydoni shu mamlakat umumiy maydonining uchdan bir qismini tashkil etishi kerak. Bugungi kunda ana shunday maydonlar dunyo bo‘yicha 7% ni tashkil etadi. Bu sohada ilg‘or mamlakatlar-Ekvador (43.1%), Venesuela (36.3%), Daniya (32.3%), Norvegiya (30.5%), Germaniya (27%), Yangi Zelandiya (23.6%), Buyuk Britaniya (20.9%).

Boshlovchi: O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich qanchani tashkil etadi?

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi vakili. Bizda maxsus muhofazaga olingan hududlar maydoni 1355 ming gektarni tashkil etadi. Respublikamizda yangi qo‘riqxonalar va tabiat yodgorliklari tashkil etilmoqda. Ularning maydoni tez ortib bormoqda.

Boshlovchi: Men maxsus muhofazaga olingan hududlar maydoni iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ortib borish jarayonini tushunmayman. Bundan insonning o‘zi zarar ko‘rmaydimi?

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining vakili: Gap shundaki, dunyo bo‘yicha va shu bilan birga O‘zbekistonda ham tashkil etilayotgan maxsus muhofazaga olingan hududlardan rekratsion maqsadda foydalanish, ekologik qulay qishloq ho‘jaligi ishlab chiqarishi, dorivor o‘simliklar xom –ashyosini tayyorlash, litsenziya asosida hayvonlarni ovlash va baliq tutish mumkin. Natijada aholi uchun foydali bo‘lgan ekologik asosda xo‘jalik yuritiladigan maskan yaratiladi.

Boshlovchi: Biosfera rezervatida hayvonlarni ovlash va turizmga ruxsat beriladimi?

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining vakili: Ovchilik ta‘qiqlanadi, turizm esa rivojlantiriladi, odamlarning dam olishi uchun zonalar ajratiladi. Ularda ekologik ta‘lim-tarbiya ishlari olib boriladi.

Boshlovchi: Tushunarli. Hozirgi vaqtda maxsus muhofazaga olingan hududlar turini tashkil etish haqida ko‘p gapirilyapti. Bu nima degani?

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining vakili: Maxsus muhofazaga olingan hududlarning ekologik turi biologik xilma-xillikni saqlashda «yadro» rolini o‘ynaydi. Ushbu «yadro» yaylovlar, jarliklar, o‘rmonlar, vohalar va boshqa ekotizimlar bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun undagi hayvonlar bir «yadro»dan ikkinchisiga o‘tishi mumkin. Maxsus muhofazaga olingan hududlar turi biologik xilma-xillikni ancha samarali muhofaza qilinadigan hudud hisoblanadi.

Boshlovchi: Men o‘ylaymanki, biz bugun biologik xilma-xillikni saqlash borasida insoniyat tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘ldik.

Bizning shou o‘z nihoyasiga yetdi. Barcha ishtirokchilarga rahmat. Keyingi uchrashuvgacha xayr!